

# AKADEMIK LİTSEYLARDA YOSHLAR UCHUN QO'LLANILADIGAN METODLAR

Raxmatullayeva Gulnoz Yusupovna

*IV Surxondaryo akademik litseyi*

## ANNATOTSIYA

Insonning ichki ongi va dunyosi juda sirli va betakrordir. Shunday yaratilganki u yig‘lashi, kulishi, baqirishi, jilmashi va boshqa turli harakatlarni osonlik bilan bajara oladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, uning psixologiyasi ham judayam murakkab va ko‘proq o‘rganishni talab etadi. Psixologik ko‘rsatmalar nafaqat asablari charchagan kattalar uchun balki hali endi katta hayotga asta-sekinlik bilan qadam qo‘yayotgan bolalar uchun ham zarurdir. Bugungi jadallahuv davrida bolalarning ham psixolog ko‘magiga muhtoj ekanligi tabiiy holat bo‘lib qoldi. Mazkur maqolada maktab o‘qituvchilari va ota-onalar uchun zarur bo‘lgan ayrim metodlar va afzallikkari haqida gaplashamiz.

## Kalit so‘zlar

Metod, prinsip, kuzatish,, eksperiment, test, so‘rov, proaktiv metod

## ABSTRACT

The inner mind and world of man is very mysterious and unique. It is designed in such a way that it can cry, laugh, shout, smile and perform various other movements with ease. As you can see, its psychology is also very complex and requires more study. Psychological guidance is necessary not only for adults who are nervous, but also for children who are still slowly entering adulthood. In today’s fast-paced world, it is natural that children also need psychological support. In this article, we will talk about some of the methods and benefits that are necessary for school teachers and parents.

## Key words

Method, principle, observation, experiment, test, survey, projective method

Yuqorida aytib o'tganimizdek, insoniyat judayam murakkab tuzilmadir. Uning psixologiyasi, fikrashi ham shunga yarasha. Biz barchamiz psixolog ko'magiga ehtiyoj sezamiz, chunki hayotda turli voqealar va holatlar bo'lishi mumkin. Mazkur maqolada kattalar haqida emas, aksincha bolalar haqida gaplashamiz. Agarda siz ota-onan bo'lsangiz, farzandingizning dunyoqarashi shakllantirish va uni har tomonlama yetuk qilib kamol toptirish uchun psixolog bo'lishingiz shart emas. Bolalar uchun qo'llaniladigan metodlar va uslublar mavjud. Shularni qo'llagan holda ham siz o'z maqsadizga erishishida mumkin. Ba'zan mutaxassislar bilan maslahatlashish judayam katta yordam beradi.

An'anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi.

- ✓ Asosiy metodlar – kuzatish va eksperiment – bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'liunot bera oladi.
- ✓ Yordamchi metodlar – test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish – tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina tsxminlami ilgari surish mumkin bo'ladi.

*Kuzatish.* Kuzatish - psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlardan biri bo'lib, psixik hodisalarai maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir. Kuzatish – tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Kuzatish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Kuzatishdan oldin uning maqsadi aniq belgilanishi kerak: bola psixikasi, xulq-atvori va faoliyatining qaysi tomonlari kuzatilishini aniqlashtirishi lozim;
2. Kuzatish ob'ektiv bo'lishi kerak; kuzatishda faqat u yoki bu holat, hodisani qayd etilishi, uni sub'ektiv talqin etishga o'tmaslik lozim;
3. Kuzatish muntazam, katta vaqt oraliqlarisiz o'tkazilishi kerak;
4. Kuzatish shunday o'tkazilishi kerakki, bola uning kuzatilayotganini bilmasligi lozim;
5. Kuzatishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalarni tez qayd eta olish mahoratiga ega bo'lishi zarur.

Kuzatihning quyidagi turlari mavjud:

- A) ichki kuzatish, tashqi kuzatish va kiritilgan kuzatish;
- B) standartlashtirilgan va slandartlashtirilimagan kuzatish;
- C) frontal va tanlanma kuzatish.

Kuzatish metodining asosiy kamchiligi shundaki, unda kuzatilayotgan hodisalarga faol ta'sir ko'rsatish, ularni o'zgartirish, kuzatish amalga oshirilgan vaziyatni xuddi shunday ko'rinishda qaytadan yaratib bo'lmaslik kabi xususiyatlar qayd etiladi. Shunga qaramay bu metod haligacha asosiy psixologik metodlardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki kuzatish metodi orqali, bolalarning har taraflama ruhiy dunyosini o'rganish, uni tahlil qilish, ilmiy jihatdan asoslash mumkin. Vaqtlar o'tib boshqa metod yaratilsagina "Kuzatish" metodi o'z asosiyligini yo'qotar, lekin hozircha shundan foydalangan holda turli ilmiy ishlar va kitoblar dunyo yuzini ko'rmoqda.

Bolalar psixologiyasi fanining taraqqiyoti ikki asosiy yo`nalishda kechadi: psixik taraqqiyot manbalari muammosini ignazariy hal etilishi va bolalar psixikasini o`rganishning yanada samaraliroq metodlarini qidirish. Psixik taraqqiyot manbalari muammolarini naza-riy xal etish deganda, ushbu muammo bilan shug`ullangan asosiy psixologik maktablar va yo`nalishlar vakillarining qarashlari tushuniladi. Bola psixikasini o`rganishning yanada samaral imetodlarini qidirish bolalar psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar xaqida aniqroq axborot olishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqishni anglatadi.

Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Shular to'g'risida umumiyligi psixologiya kursida keng ma'lumotlar berilgan. Yosh davri va deferensiya psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa sohalari singari o'ziga hos ilmiy-tadqiqotmetodlariga ega. Quyida atoqli psixolog B.G.Ananев tavsiya qilgan klassifikatsiyaga asoslanib, mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilgan.

B.G.Ananев psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishslash yoki statistik, natijalarni shaxslash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o'zining maqsad va vazifasi bo'yicha yana bir necha toifa hamda turlariga bo'linadi. Quyidagi mazkur metodlarning umumiyligi va o'ziga xos

xususiyatlari hamda qiyosiy tavsiya berildi. Tadqiqot metodlarining birinchi – tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (o‘zluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiyligi psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o‘zaro taqqoslash), meditsina psixologiyasi (sog‘lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlariga qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, o‘quvliligi va ishchanligini o‘zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi.

a) Yosh davri psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagagi olamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o‘zaro xosligi kabilarni o‘rganishda qo‘llanadi. Psixologlardan L.S. Vigostkiy, P.P. Blonskiy, A.A. Smirnov, B.G. Ananev, D.B. Elkonin, P.Ya. Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go‘daklik, ilkbolalik, kichik maktabyoshi, o‘smirlilik, o‘spirinlik yosh davrlarini o‘zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

b) Bolalar psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (o‘zluksiz) metodi ham qo‘llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki birnecha sinaluvchilar o‘zaro uzoq muddat, hatto, o‘n yillab tekshirilishidir. Logityud psixologlardan nemis Sh. Shtern, fransuz R. Zazzo, rus psixologlari N. A. Menchinskaya, A. N. Gvozdev, I. S. Leytis, V. S. Mo‘zzinava boshqalar ko‘p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Xusan) egizaklar ko‘zatilgan. Shuning uchun qator tadqiqotlarning “ona kundaligi” (N. A. Menchinskaya, V. S. Muxina) deb nomlanishi beziz emas. Uzoq vaqt bir shaxsni (kichik guruhni) ko‘zatish unda paydo bo‘layotgan yangi fazilatlarning rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni (xatti-harakat) va ularning oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlarni, ichki bog‘lanish qonuniyatlarini, mexanizmi to‘g‘risida mukammal, ishonchli, barqaror, ma’lumotlar to‘plash imkonini yaratadi. Kompleks dastur yordamida amalga

oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo‘lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi. Ilmiy tadqiqot metodlarining ikkinchi gurux emperik metodlardan iborat bo‘lib, bu guruhdha kuzatish (o‘zini o‘zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so‘rov, sotsiometriya, suhbat qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma, xujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Insonda tug‘ilganidan umrining oxirigacha sodir bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlarni chuqurroq va ob‘ektivroq tadqiq qilishu un empirik metodlardan navbati bilan foydalanish yaxshi natija beradi. Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo‘linadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotda ko‘pincha quyidagi statistik metodlardan foydalilanadi.

Proaktiv nietod – shaxsni o’rganishning metodlaridan biri. Unda shunday eksperimental vaziyatlar yaratiladiki, bu vaziyatlar sinaluvchilar tomonidan talqin etilishi mumkin bo’ladi. Aynan sinaluvchining bergan talqinini tahlil etish orqali uning shaxsi haqida muayyan xulosalar chiqariladi. Chunki muayyan eksperimental vaziyatni talqin etar ekan proeksiya mexanizmi tufayli sinduvchi o’z ichki kechinmalari, o’y xayollari, orzulari, qo’rquv va xavotirlarini tashqariga chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaganda qo’llaniladigan odatdagi proaktiv metodikalar quyidagilardan iborat: “Bola appersepsiya testi”, “Jeksonning oilaviy ustakovkalari testi”, “Dyuss ertaklari metodikasi” va hokazolar. Ushbu metodikalarni qo’llash ssosan individual ish jaiayonida amalga oshirilib, ancha ko’p vaqt talab etadi. Proaktiv metod bilan o’tkazilgan tadqiqot natijalariini talqin etishda tadqiqotchidan katta mahorat talab qilinadi.

So‘z oxirida shuni ta’kidlashimiz lozimki, bolalar psixologiyasini o’rganish va uni tahlil qilish o‘sib kelayotgan kelajak avlod uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishimiz uchun lozimdir. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini psixologiyasini yaxshi qilib rivojlantirishni bog’cha davridayoq shakllantirib boorish kerak bo’ladi. Dastlabki bilimlar esa, albatta, uyda beriladi. Aytishadiku, “Qush uyasida ko’rganini qiladi” deb.

Shunday ekan, bolalarni psixologik jihatdan sog'lom baquvvat qilish eng avvalo uydan boshlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Yoshga bog'liq psixologiya. O'quv qo'llanma M.: Rossiya Pedagogika Jamiyati. – 1999
- Rivojlanish psixologiyasi: Universitetlar uchun darslik. M.: Oliy ma'lumot; MGPPU, 2006 .. – 460 p. – (Fanlar asoslari).
- G'oziev E.G. "Oliy maktab psixologiyasi" Tosh DU.1992y.
- <https://azkurs.org>